



Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti

XXI ASR: FAN VA TA'LIM MASALALARI

ilmiy elektron jurnali

ISSN: 2181-9874



EDUCATION

2025

AFG‘ONISTONDA ICHKI SIYOSIY BEQARORLIK VA HOKIMIYAT UCHUN KURASHLAR (XIX ASR IKKINCHI YARMI)

Abduvahob Abdurasul o‘g‘li Egamberdiyev

Mustaqil tadqiqotchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Afg‘onistonda yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik sabablari va oqibatlari chuqur tahlil etiladi. Siyosiy inqirozlar, vorislik uchun kurashlar, markazlashmagan hokimiyat tizimi, va mahalliy qabila ziddiyatlari ichki barqarorlikni izdan chiqargan. Qabila tizimining saqlanib qolishi davlat boshqaruvining zaiflashuviga olib kelgan, amirlik markaziy hokimiyati esa bu kuchlar bilan muvozanatni saqlashga majbur bo‘lgan. Tashqi siyosatda Buyuk Britaniya va Rossiya o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat Afg‘onistonni bufer hududga aylantirgan, ayniqsa Ikkinchi ingliz-afg‘on urushi va Gandamak shartnomasi mamlakat suverenitetiga tahdid solgan. Natijada ommaviy qo‘zg‘olonlar, xalq noroziligi va qurolli qarshilik kuchaygan. Bu holatlar qochqinlar to‘lqini, oziq-ovqat tanqisligi va epidemiyalar bilan kechgan humanitar inqirozga sabab bo‘lgan. Maqolada shuningdek, “Turkestanskije vedomosti” gazetasida e’lon qilingan tarixiy manbalar asosida tashqi siyosatdagi noaniqliklar va chegaraviy mojarolar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Afg‘oniston tarixi, Qabila tizimi, Ikkinchi ingliz-afg‘on urushi, Gandamak shartnomasi, Geosiyosiy raqobat, Qochqinlar, Humanitar inqiroz, Tashqi siyosat, Turkiy matbuot, Durand chizig‘i, Mustaqillik uchun kurash.

ВНУТРЕННЯЯ ПОЛИТИЧЕСКАЯ НЕСТАБИЛЬНОСТЬ И БОРЬБА ЗА ВЛАСТЬ В АФГАНИСТАНЕ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX ВЕКА)

Абдувахоб Абдурасул угли Эгамбердиев

Исследователь

Ташкентского государственного университета востоковедения

Аннотация. В данной статье проводится углублённый анализ причин и последствий политической нестабильности, возникшей в Афганистане во второй половине XIX века. Политические кризисы, борьба за престолонаследие, децентрализованная система власти и межплеменные противоречия подорвали внутреннюю стабильность страны. Сохранение

племенной структуры способствовало ослаблению государственного управления, а центральная власть эмирата была вынуждена балансировать между этими силами. Во внешней политике геополитическое соперничество между Великобританией и Россией превратило Афганистан в буферную зону, при этом особенно серьёзную угрозу суверенитету страны представляли Вторая англо-афганская война и Гандамакский договор. В результате усилились массовые восстания, народное недовольство и вооружённое сопротивление. Эти процессы вызвали гуманитарный кризис, сопровождавшийся волнами беженцев, нехваткой продовольствия и эпидемиями. В статье также на основе опубликованных в газете «Туркестанские ведомости» исторических источников освещаются вопросы внешнеполитической неопределённости и пограничных конфликтов.

Ключевые слова: История Афганистана, племенная структура, Вторая англо-афганская война, Гандамакский договор, геополитическое соперничество, беженцы, гуманитарный кризис, внешняя политика, тюркоязычная пресса, линия Дюранда, борьба за независимость.

INTERNAL POLITICAL INSTABILITY AND POWER STRUGGLES IN AFGHANISTAN (SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY)

Abdulahob Abdurasul ogli Egamberdiev

Researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

Annotation. This article offers an in-depth analysis of the causes and consequences of the political instability that emerged in Afghanistan during the second half of the 19th century. Political crises, succession struggles, a decentralized system of governance, and local tribal rivalries all contributed to undermining internal stability. The persistence of the tribal system weakened state administration, while the emirate’s central authority was forced to maintain a precarious balance among these competing forces. In foreign affairs, geopolitical rivalry between Great Britain and Russia turned Afghanistan into a buffer zone, with the Second Anglo-Afghan War and the Treaty of Gandamak posing particularly serious threats to the country's sovereignty. As a result, mass uprisings, popular discontent, and armed resistance intensified. These developments led to a humanitarian crisis marked by waves of refugees, food shortages, and epidemics. The article also examines, based on historical sources

published in the newspaper “Turkestanskije Vedomosti”, the external policy ambiguities and border conflicts of the period.

Keywords: *Afghan history, tribal system, Second Anglo-Afghan War, Treaty of Gandamak, geopolitical rivalry, refugees, humanitarian crisis, foreign policy, Turkic-language press, Durand Line, struggle for independence.*

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi Afgʻoniston tarixida oʻta muhim va murakkab davr sifatida ajralib turadi. Ushbu davr ichki siyosiy beqarorlik, markazlashmagan boshqaruv tizimi, qabila ziddiyatlari va tashqi davlatlar aralashuvi bilan xarakterlanadi. Amirlik hokimiyati oʻz mavqeini saqlab qolish uchun mahalliy qabila yetakchilari bilan murakkab muzokaralar olib borishga va ularning taʼsirini cheklashga urinadi.

Afgʻoniston bu davrda Buyuk Britaniya va Rossiya oʻrtasidagi “Buyuk oʻyin” deb atalgan geosiyosiy raqobat markaziga aylanadi. Ikki imperiya oʻz manfaatlarini himoya qilish maqsadida mamlakatga bevosita va bilvosita siyosiy, iqtisodiy va harbiy bosimlar oʻtkazadi. Ayniqsa, Ikkinchi ingliz-afgʻon urushi (1878–1880) va Gandamak shartnomasi (1879) Afgʻonistonning suverenitetini cheklashga qaratilgan choralar sifatida tarixda muhim oʻrin egallaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur ishda XIX asr ikkinchi yarmida Afgʻonistondagi siyosiy beqarorlikning asosiy sabablari, ichki va tashqi omillarning oʻzaro bogʻliqligi, qabila tizimining davlat boshqaruvi va tashqi siyosatga taʼsiri, qoʻzgʻolonlar, qochqinlar masalasi va buyuk davlatlar oʻrtasidagi geosiyosiy raqobat kontekstida atroflicha tahlil qilinadi. Shu bilan birga, “Turkestanskije vedomosti” gazetasi materiallari asosida oʻsha davr voqealari manbaviy asosda yoritiladi.

ASOSIY QISM

XIX asrning ikkinchi yarmida Afgʻonistondagi siyosiy vaziyat yuqori darajada noaniqlik va beqarorlik bilan tavsiflanadi. Bu beqarorlikning asosiy

manbalari — markazlashmagan hokimiyat tuzilmasi, vorislik uchun olib borilgan o‘zaro kurashlar, qabilaviy ziddiyatlar va tashqi davlatlarning aralashuvi edi. Bu davr Afg‘oniston tarixida «siyosiy inqirozlar» davri sifatida namoyon bo‘ldi.

Amir Sheralixonning hukmronligi davridagi eng jiddiy siyosiy mojarolardan biri uning o‘g‘li Yoqubxon bilan bo‘lgan ziddiyatlar edi. 1874-yildagi xabarda ta’kidlanishicha, «Amir Sherali o‘z o‘g‘li Yoqubni valiahd deb tayinlagan, biroq uning itoatsizligi va mustaqil harakatlari mamlakatda siyosiy beqarorlikka sabab bo‘ldi»¹.

Afg‘onistondagi siyosiy murakkablikning asosiy omillaridan yana biri bu — qabilaviy tuzumning saqlanib qolishi va uning siyosiy hayotdagi hal qiluvchi roli bo‘ldi. Afg‘oniston jamiyati tarixan turli etnik va qabilaviy guruhlardan iborat bo‘lib, ularning har biri mustaqil siyosiy va harbiy kuchga ega edi. Qabilaviy tuzum asosida shakllangan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar davlatning markazlashuviga to‘sqinlik qildi. Bu tuzumda siyosiy va ma’muriy boshqaruv mahalliy oqsoqollar, ruhoniylar va harbiy yetakchilar qo‘lida bo‘lib, ular markaziy hokimiyatga qaram emas, balki unga raqobatchi sifatida faoliyat yuritgan.

Mamlakatdagi ichki beqarorlikni yanada kuchaytirgan omillardan biri aynan mana shu qabilaviy tizimning ustuvorligi va ularning mustaqil harakat qilishga intilishi edi. 1875-yildagi kuzatuvlarga ko‘ra, «janubiy hududlardagi tog‘liklar Kobul hukumatiga qarshilik ko‘rsatib, o‘z hududlarini himoya qilish maqsadida qo‘zg‘olonlar chiqarishgan»². Afg‘onistondagi g‘arbiy va janubiy viloyatlarda ko‘pincha mahalliy qabilalar amir farmonlariga itoat qilmas, balki o‘z qonunlari asosida harakat qilishardi. Masalan, duroniy, gilzay, xojaniy va barozay kabi yirik qabilalar siyosiy manfaatlar yo‘lida ittifoqlar tuzishga va kurash olib borishga moyil edilar.

MUHOKAMA

Ta’kidlash joizki, qabilaviy tizim amirlik hokimiyati uchun doimiy tahdid bo‘lib qoldi. Ko‘pincha amirlar mamlakatda nisbiy barqarorlikni saqlab qolish uchun qabilalar bilan alohida kelishuvlarga borishga majbur bo‘lishgan. Ba’zi

¹ Туркестанские ведомости, 1874, № 43

² Туркестанские ведомости, 1875, № 17

hollarda esa, hukumat mahalliy qabila yetakchilariga faqat ramziy tarzdgina ta’sir o’tkaza olardi. 1879-yildagi bir maqolada qayd etilishicha, «Kobul hukumati Log’ar va G’aznidagi qabilalarning boshboshdoqligini cheklashga uringan, biroq bu harakatlar qarshilikka uchragan va boshboshdoqlik yanada avj olgan»³.

Qabilaviy tuzumning davlat boshqaruviga ta’siri boshqa jihatdan ham namoyon bo’ldi, ya’ni harbiy kuchning markazlashmaganligi ham salbiy ta’sir ko’rsatdi. Qabilalar o’zlarining harbiy qo’shinlariga ega bo’lib, ularni markaziy hukumatning buyrug’iga bo’ysuntirish amaliyoti deyarli amalga oshmas edi. Bu holat 1880-yilda Kobul atrofida bo’lib o’tgan qo’zg’olonlar paytida yaqqol namoyon bo’ldi. «Qo’zg’olonchilarning aksariyati mahalliy qabila yoshlaridan iborat bo’lib, ular markaziy hukumatga qarshi jang qilishgan»⁴.

Qabilaviy tizim nafaqat davlat qurilishi, balki tashqi siyosatga ham ta’sir ko’rsatdi. Afg’onistonning tashqi davlatlar bilan munosabatlarida ko’pincha mahalliy yetakchilar ishtirok etgan va ularning manfaatlari davlat siyosati bilan mos tushmas edi. Bu esa diplomatik muvaffaqiyatsizliklarga va Afg’onistonning tashqi siyosatida yagona yo’nalishning yo’qligiga olib kelgan.

Shu tariqa, qabilaviy tuzum Afg’onistonda XIX asr ikkinchi yarmida siyosiy beqarorlikning markaziy omili sifatida maydonga chiqdi. Bu tuzum amirlik hokimiyatini markazlashtirish va samarali boshqaruvni joriy qilish imkoniyatini chekladi. Markaziy hukumatning siyosiy irodasi mavjud bo’lgan taqdirda ham, qabilaviy kuchlar bilan muvozanatni saqlash, ularni hukumat tizimiga integratsiya qilish uchun murakkab va uzoq muddatli siyosat talab etilgan.

Buyuk Britaniya va Rossiyaning geosiyosiy raqobati kontekstida Afg’oniston. XIX asrda Afg’oniston «Buyuk o’yin» deb atalmish geosiyosiy raqobat markaziga aylandi. Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyalari Hindiston va Markaziy Osiyodagi ta’sir doiralarini kengaytirish maqsadida Afg’oniston hududini strategik nuqta sifatida ko’rdi. Afg’onistonning muhim geografik

³ Туркестанские ведомости, 1879, № 40

⁴ Туркестанские ведомости, 1880, № 6

joylashuvi — Rossiyaga yaqinligi va Britaniya boshqaruvidagi Hindiston bilan chegaradoshligi — uni har ikki imperiya uchun muhim bufer hududga aylantirdi.

1878-1880-yillardagi Ikkinchi ingliz-afg‘on urushi aynan shu geosiyosiy raqobatning ifodasi bo‘ldi. Urush arafasida Rossiya Afg‘oniston hududiga o‘z elchilarini yuborib, siyosiy aloqalarni mustahkamlashga urindi. Bu esa Buyuk Britaniyada xavotir uyg‘otdi va ular o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun harbiy harakatlarga o‘tdi. 1879-yilda Kobuldagi ingliz missiyasiga hujum urushning asosiy sabablaridan biri bo‘ldi⁵.

Buyuk Britaniya uchun Afg‘onistondagi barqarorlik – bu avvalo Hindiston chegaralarining xavfsizligidir. 1875-yildagi manbada qayd etilishicha, «Afg‘onistondagi beqarorlik Hindiston bilan chegarada xavfsizlik muammolarini keltirib chiqarmoqda»⁶. Britaniya siyosiy va harbiy tadbirlar orqali amirlik hokimiyatini o‘z nazorati ostiga olishga uringan, shu maqsadda Yoqubxon bilan 1879-yilda Gandamak shartnomasini tuzgan.

Shartnoma asosida Britaniya Afg‘oniston tashqi siyosati ustidan nazorat o‘rnatish huquqiga ega bo‘ldi. Bu esa mamlakat mustaqilligiga katta tahdid soldi va xalq noroziligiga sabab bo‘ldi. Britaniyaning maqsadi — Rossiya ta’sirining oldini olish va Afg‘onistonni bufer zona sifatida saqlab qolish bo‘lsa, Rossiya esa turli diplomatik kanallar orqali o‘z ta’sirini saqlashga uringan. Bunga javoban Buyuk Britaniya o‘z harbiy kuchlarini chegara nuqtalari — jumladan, Kvetta va Kelatda mustahkamlab borgan⁷.

Shu tariqa, Afg‘oniston XIX asrning ikkinchi yarmida Buyuk Britaniya va Rossiya o‘rtasidagi katta geosiyosiy to‘qnashuv maydoniga aylandi. Bu raqobat mamlakat ichki siyosiy beqarorligiga yanada ta’sir ko‘rsatdi, amirlik hokimiyatini tashqi bosimlar bilan muvozanatlashga majbur qildi. Afg‘oniston hukmdorlari ikki imperiya orasida siyosiy manyovr qilishga majbur bo‘ldilar, biroq bu siyosat ko‘p hollarda mamlakatdagi mustaqillik va barqarorlikni ta’minlay olmadi.

⁵ Туркестанские ведомости, 1879, № 39

⁶ Туркестанские ведомости, 1875, № 17

⁷ Туркестанские ведомости, 1879, № 41

Qo‘zg‘olonlar va Buyuk Britaniyaning aralashuvi. Afg‘onistonda XIX asr ikkinchi yarmidagi qo‘zg‘olonlar mamlakatdagi ichki siyosiy barqarorlikka jiddiy tahdid bo‘lib, Buyuk Britaniyaning aralashuvi uchun bahona va imkoniyat yaratdi. Qo‘zg‘olonlar ko‘p hollarda qabilaviy qarshilik, markaziy hokimiyatga ishonchsizlik va chet el ta’sirlariga qarshi jamoaviy harakatlar sifatida yuzaga kelgan.

1879-yilda Kobulda sodir bo‘lgan qo‘zg‘olon Buyuk Britaniyaning Afg‘oniston ishlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuviga olib keldi. Bu voqea Kobuldagi britan missiyasiga qilingan hujum bilan bog‘liq bo‘lib, missiya boshlig‘i Ser Lui Kavanyari va uning hamrohlari halok bo‘ldi. Bu voqea Britaniyaning harbiy javob choralarini talab qilgan va Afg‘oniston hududiga to‘liq harbiy intervensiyaga olib kelgan⁸.

1879-1880-yillardagi Ikkinchi ingliz-afg‘oniy urushi natijasida Britaniya Qandahor va Kobulda harbiy nazorat o‘rnatdi. Qo‘zg‘olonlar to‘xtaganiga qaramay, xalq orasidagi norozilik kuchaydi. 1880-yilda Kobul atrofida sodir bo‘lgan yana bir keng ko‘lamli qo‘zg‘olon Britaniyaning siyosiy va harbiy siyosatini rad etishga qaratilgan jamoaviy harakat edi⁹.

Gandamak shartnomasining imzolanishi (1879) Buyuk Britaniyaga Afg‘oniston tashqi siyosatini boshqarish huquqini berdi. Ammo bu shartnoma xalq tomonidan qattiq qarshilikka uchradi. Afg‘oniston aholisi bu shartnomani mamlakat mustaqilligiga tahdid sifatida qabul qildi. Bu holat Buyuk Britaniyaga qarshi yanada kuchli qo‘zg‘olonlarning boshlanishiga zamin yaratdi¹⁰.

Qo‘zg‘olonlar faqat markazda emas, balki viloyatlarda ham kuchayib ketgan. Xususan, G‘azni, Log‘ar va Hirot atroflarida qo‘zg‘olonchilar amirlik hokimiyati hamda Britaniya qo‘shinlariga qarshi faol kurash olib borishgan. Buyuk Britaniya bu harakatlarga qarshi turli harbiy kampaniyalar uyushtirdi va ba’zi hollarda mahalliy qabilalar bilan alohida shartnomalar tuzishga majbur bo‘ldi.

Shu tariqa, Afg‘onistondagi qo‘zg‘olonlar va ularga qarshi Britaniya aralashuvi mamlakat mustaqilligi va hududiy yaxlitligi uchun jiddiy tahdid bo‘ldi.

⁸ Туркестанские ведомости, 1879, № 39

⁹ Туркестанские ведомости, 1880, № 6

¹⁰ Туркестанские ведомости, 1879, № 41

Qo‘zg‘olonlar xalqi siyosiy ongi va mustaqillikka intilishini ifoda etar ekan, Britaniyaning harbiy va siyosiy tadbirlari ushbu milliy harakatlarni bosim ostida saqlashga qaratilgan choralar sifatida namoyon bo‘ldi.

Qochqinlar va gumanitar inqiroz. Afg‘onistondagi ichki siyosiy beqarorlik, qo‘zg‘olonlar va Buyuk Britaniyaning harbiy aralashuvi keng ko‘lamli qochqinlar to‘lqiniga hamda gumanitar inqirozga sabab bo‘ldi. XIX asr ikkinchi yarmida mamlakatning turli hududlaridagi harbiy harakatlar natijasida minglab odamlar o‘z uy-joylarini tark etishga majbur bo‘ldi. Jumladan, Kobul, Qandahor va G‘azna atroflarida bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olonlardan keyin aholi Turkistonga, Hindistonga va Eron hududlariga ommaviy ravishda qochib o‘tgani haqida Turkiston matbuotida bir necha marta ma’lumot berilgan. 1879-yildagi maqolalardan birida quyidagicha yoziladi: «Kobul va uning atroflaridagi janjallardan so‘ng ko‘plab ayollar va bolalar Peshaur tomonga yo‘l olmoqda, ularning ahvoli juda ayanchli. Ovqat-ozuqa va boshpana yetishmasligi tufayli ko‘plab insonlar yo‘lda halok bo‘lmoqda»¹¹.

Shuningdek, G‘azni va Hirotidagi qabilaviy qo‘zg‘olonlar ham aholining ommaviy ko‘chishlariga sabab bo‘ldi. Qishloqlar yonib ketgan, hosillar yerib ketgan, suv manbalari nazoratdan chiqib ketgan. Bu omillar odamlarni na faqat siyosiy, balki iqtisodiy muhitdan ham qochishga majbur qilgan. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, 1880-yilda turli manzillarga qochganlar soni 50 ming nafardan oshgan¹².

Bu qochqinlar oqimi Turkiston hududlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, Surxondaryo va Qashqadaryo o‘lkalarini bosib o‘tgan afg‘on qochqinlari mahalliy aholi bilan resurslar bo‘yicha raqobatni oshirib yuborgan. 1880-yildagi manbada qayd etilishicha, «qochqinlar orasida turli kasalliklar tarqalmoqda, ular orasida bezgak va isitma keng yoyilgan. Tibbiy yordam yetishmasligi hamda oziq-ovqat tanqisligi faqatgina qochqinlar uchun emas, mahalliy aholi uchun ham katta muammoga aylangan»¹³.

¹¹ Туркестанские ведомости, 1879, № 40

¹² Туркестанские ведомости, 1880, № 6

¹³ Туркестанские ведомости, 1880, № 7

Buyuk Britaniyaning harbiy aralashuvi chogʻida gumanitar yordam tadbirlari mutlaqo yetarli darajada tashkil etilmagan. Britaniya ma’muriyati oʻz nazoratidagi hududlarda faqatgina harbiy ob’ektlar xavfsizligini ta’minlashga uringan boʻlsa-da, aholi manfaatlari e’tibordan chetda qolgan. Bu esa qochqinlar muammosini yanada kuchaytirgan.

Shuningdek, turli qabila yetakchilari boshchiligidagi mahalliy harakatlar orqali insonparvarlik yordami koʻrsatishga uringan fuqarolar ham boʻlgan. Biroq bu harakatlar yetarlicha markazlashmagan va tashkiliy jihatdan kam ta’minlangan boʻlgan.

Umuman olganda, Afgʻonistondagi XIX asr ikkinchi yarmidagi siyosiy beqarorlik gumanitar inqiroz bilan uygʻun tarzda kechgan. Qochqinlar oqimi, oziq-ovqat yetishmasligi, tibbiy xizmatlar yoʻqligi va kasalliklar tarqalishi Afgʻoniston jamiyatining ogʻir ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yanada ogʻirlashtirgan.

Afgʻonistonning tashqi siyosatdagi noaniqliklari. Afgʻonistonning tashqi siyosatdagi noaniq yoʻnalishlari XIX asr ikkinchi yarmida mamlakatdagi ichki beqarorlik va tashqi bosimlar ta’sirida shakllandi. Har bir yangi amir yoki hokim oʻz siyosiy mavqeini mustahkamlash maqsadida tashqi kuchlar — ayniqsa Rossiya va Buyuk Britaniya bilan turlicha munosabat oʻrnatishga uringan.

1870-1880-yillardagi manbalarda qayd etilishicha, Afgʻoniston hukmdorlari bir vaqtning oʻzida ikki yirik imperiya — Rossiya va Britaniya orasida muvozanat saqlashga intilgan. Bu muvozanat koʻpincha bir-birini inkor qiluvchi siyosiy harakatlar bilan ifodalangan. Masalan, amir Sheralixon bir paytda ham Rossiya bilan savdo munosabatlarini mustahkamlar, ham Buyuk Britaniya bilan siyosiy aloqalarni yaxshilashga harakat qilar edi. Biroq bu ikki tomonlama siyosat koʻpincha ishonchsizlikka olib kelgan va Afgʻonistonning tashqi siyosatini zaiflashtirgan¹⁴.

Gandamak shartnomasidan (1879) soʻng Buyuk Britaniya Afgʻonistonning tashqi siyosatini nazorat qilish huquqini qoʻlga kiritdi. Shartnoma orqali amirlik xalqaro masalalarda mustaqil siyosat yuritish imkoniyatini yoʻqotdi. Shu bilan

¹⁴ Туркестанские ведомости, 1874, № 43
www.sharqjurnali.uz

birga, bu vaziyat amirlikni Rossiya bilan aloqalarni rasmiy ravishda cheklashga majbur qildi. Bunga javoban Rossiya diplomatik kanallar orqali ko‘plab mahalliy siyosiy kuchlar bilan yashirin aloqalar o‘rnatishga harakat qilgan¹⁵.

Afg‘oniston tashqi siyosatining asosiy muammolaridan biri uning tez o‘zgaruvchan tabiati bilan bog‘liq edi. Mamlakat hokimiyatidagi tez-tez almashinuvlar, qabilaviy bosimlar va tashqi aralashuvlar natijasida tashqi siyosatda uzoq muddatli strategiyani yuritish imkonsiz bo‘lib qolgan. Ayniqsa, 1880-yildagi Kandahor jangi ortidan Britaniyaning Hindiston bilan bog‘liq xavfsizlik siyosatida Afg‘onistonning roli yanada pasaytirildi. Bu holat amirlik uchun diplomatik izolyatsiya jarayonini boshladi.

Bundan tashqari, Turkiston matbuotida Afg‘onistondagi elchixonalar va missiyalar faoliyati haqida ham turli ma’lumotlar beriladi. Jumladan, 1880 yilda Kobulda qayta tashkil etilgan Buyuk Britaniya missiyasi va uning diplomatik faoliyati xalq orasida norozilik uyg‘otgani haqida xabar berilgan¹⁶.

Shu tariqa, XIX asr ikkinchi yarmida Afg‘oniston tashqi siyosatda noaniq, qarama-qarshi va qisqa muddatli yondashuvlar bilan harakat qilgan. Bu esa uni geosiyosiy raqobat qurboniga aylantirgan va mamlakat mustaqil tashqi siyosiy kursini belgilash imkonini cheklagan.

Afg‘oniston va Hindiston chegarasidagi vaziyat. XIX asrda Afg‘oniston va Buyuk Britaniya boshqaruvidagi Hindiston o‘rtasidagi chegara masalasi xalqaro siyosiy muammo sifatida shakllandi. Afg‘onistonning chegaralari aniq belgilanmagan va mahalliy qabilaviy tuzilmalar tomonidan boshqarib kelingan hududlar bo‘lib, Buyuk Britaniya bu hududlarni o‘z ta’siriga o‘tkazishga urinayotgan edi. Bu esa ko‘plab harbiy to‘qnashuvlarga va siyosiy kelishmovchiliklarga sabab bo‘ldi.

Ayniqsa, Kvetta, Kelat va Peshovar atrofidagi hududlar inglizlar va afg‘onlar o‘rtasidagi geosiyosiy ziddiyat markaziga aylangan. 1879-yilda “Turkestanskije vedomosti” gazetasida yozilishicha, «Buyuk Britaniya harbiylari

¹⁵ Туркестанские ведомости, 1879, № 41

¹⁶ Туркестанские ведомости, 1880, № 8

chegaralar atrofidagi qabilalarni bo‘ysundirish uchun yangi fortlar qurmoqda va bu amirlik tomonidan mustaqillikka tahdid sifatida qabul qilinmoqda»¹⁷.

Dyurand chizig‘i (Durand Line) chegarasi 1893-yilda rasmiy belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, uning avvalida yuz bergan kelishmovchiliklar allaqachon mintaqadagi beqarorlikka asos solgan edi. Afg‘oniston hokimlari bu chegarani tan olmasdan, uning xalq farovonligi va suverenitetiga ziyon keltiradi, deb hisoblashgan. Natijada, chegara atrofidagi qishloqlar va qabilalar orasida to‘qnashuvlar, bosqinlar va hujumlar kuzatilgan. “Turkestanskije vedomosti” gazetasida 1880-yilda «Xaybar tog‘ yo‘li atrofidagi vaziyat keskinlashib, savdo yo‘llari yopilmoqda, bu esa Hindiston bilan savdo aloqalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda», deb yozilgan¹⁸.

Afg‘oniston va Hindiston chegarasidagi muammolar Buyuk Britaniyaning harbiy strategiyasi va Afg‘onistondagi ichki siyosatga bo‘lgan aralashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu vaziyat afg‘on jamiyatida milliy birlik va suverenitet uchun kurash ruhini kuchaytirgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, Afg‘onistonda XIX asr ikkinchi yarmidagi siyosiy holat mamlakat ichki va tashqi siyosiy jarayonlar o‘zaro bog‘liq va murakkab shaklda kechganini namoyon etadi. Ichki siyosiy beqarorlik – vorislik uchun kurashlar, markazlashmagan hokimiyat va qabilaviy ziddiyatlar fonida yuzaga kelgan bo‘lib, mamlakatning mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyatini cheklagan. Sheralixon va boshqa hokimlarning Rossiya va Buyuk Britaniyaga nisbatan olib borgan muvozanatli, ammo turg‘un siyosatlari Afg‘onistonning xalqaro maydondagi mavqeini zaiflashtirgan.

Qo‘zg‘olonlar va tashqi aralashuvlar aholi orasida keng ko‘lamli qochqinlikni keltirib chiqargan, gumanitar inqiroz yuzaga kelgan. Bu holat

¹⁷ Туркестанские ведомости, 1879, № 42

¹⁸ Туркестанские ведомости, 1880, № 9

Turkiston hududlariga ham ta’sir ko’rsatib, savdo aloqalariga, sog’liqni saqlash tizimiga va demografik balansga salbiy ta’sir qilgan.

Tashqi siyosatdagi noaniqlik va mustaqil harakat qilish imkonining yo’qligi, ayniqsa, Gandamak shartnomasidan so’ng yanada kuchaygan. Afg‘oniston-Hindiston chegarasidagi ziddiyatlar, Dyurand chizig‘i va ingliz harbiy fortlarining qurilishi afg‘on jamiyatidagi mustaqillik uchun kurashni yanada kuchaytirgan. Chegaralar atrofidagi harbiy to‘qnashuvlar va savdo yo‘llarining yopilishi mintaqadagi beqarorlikni yanada kuchaytirgan.

Shuningdek, ushbu davrdagi Afg‘oniston tarixini tahlil qilishda Turkiston matbuoti – xususan, “Turkestanskije vedomosti” gazetasi muhim manba sifatida xizmat qiladi. Unda berilgan reportaj va tahlillar orqali mintaqaviy siyosiy-ijtimoiy vaziyatni tiklash mumkin. Bu esa Afg‘onistonning XIX asrdagi siyosiy dinamikasini, uning tashqi kuchlar bilan munosabatlarini chuqur anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Turkestanskije vedomosti, 1874, № 43
2. Turkestanskije vedomosti, 1875, № 17
3. Turkestanskije vedomosti, 1879, № 39.
4. Turkestanskije vedomosti, 1879, № 40.
5. Turkestanskije vedomosti, 1879, № 41
6. Turkestanskije vedomosti, 1879, № 42
7. Turkestanskije vedomosti, 1880, № 6
8. Turkestanskije vedomosti, 1880, № 7
9. Turkestanskije vedomosti, 1880, № 8
10. Turkestanskije vedomosti, 1880, № 9